TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

BOZOROV SUHROBJON MUMIN O‘G‘LI

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARIDA TARMOQ HUJUMLARINI ANIQLASH USULI VA ALGORITMLARI

05.01.05 – Axborotni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K 004.056.57

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical science

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

BOZOROV SUHROBJON MUMIN O‘G‘LI

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARIDA TARMOQ HUJUMLARINI ANIQLASH USULI VA ALGORITMLARI

05.01.05 – Axborotni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5294 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**G‘ulomov Sherzod Rajaboyevich** texnika fanlar doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Kerimov Komil Fikratovich** texnika fanlar doktori, professor
	Kadirov Mirxusan Mirpo‘latovich texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**“UNICON.UZ” MCHJ - Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi.**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_18_”.__oktabr__. soat _11:30_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-64-15; e-mail: info@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_368_ – raqam bilan ro‘yxatga olingan).
(Manzil: 100084, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-64-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “_08_” _oktabr_da tarqatildi.
(2025-yil “__” _____dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

B.Sh. Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

M.S. Saitkamolov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.Ya. Irgasheva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda butun dunyo miqyosida axborot-kommunikatsiya tizimlarida yuzaga keluvchi moliyaviy, texnik va axborot xavfsizligiga oid zararlarni kamaytirish yoki butunlay oldini olish maqsadida, hujumlarni aniqlash (Intrusion Detection System – IDS) hamda ularni bartaraf etish tizimlarining (Intrusion Prevention System – IPS) aniqligi va samaradorligini oshirish, mavjud zaifliklarni bartaraf etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rilmoqda. 2024-yil noyabr oyida respublikamiz axborot-kommunikatsiya tizimlariga 10 500 dan ortiq turli hujumlar amalga oshirilganligi qayd etilgan. Xususan, “Kasperskiy” laboratoriyasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil dekabr oyida kiberhujumlar eng ko‘p uyushtirilgan davlatlar orasida O‘zbekiston 46-o‘rinni egallagan[1]. Bu o‘z navbatida, axborot-kommunikatsiya tizimlari xavfizlik darajasini oshirish uchun hujumlarni aniqlash tizimlarini, xususan, mavjud va yangi hujumlarni samarali aniqlashga imkon beruvchi usul va algoritmlarni takomillashtirishni taqozo etadi. Yevropa mamlakatlari, AQSH, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda hujumlarni aniqlash tizimlarini sun’iy intellekt usullari yordamida takomillashtirish, yangi usul va algoritmlar ishlab chiqish, shuningdek, ularni real tizimlarda joriy etish borasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari ham nazariy, ham amaliy jihatdan faol olib borilmoqda.

Jahon tajribasiga ko‘ra, hozirgi kunda kiberhujumlardan himoya vositalarini ishlab chiqish, tarmoq paketlaridagi anomaliyalarni real vaqtda aniqlash, hujumlarni aniqlash tizimlarini qurish usul va algoritmlarni intellektual tizimlar yordamida takomillashtirish uchun ishlar olib borilmoqda. Ushbu sohada, jumladan signaturaga asoslangan aniqlashdan voz kechgan holda paketlarni sun’iy intellekt usullari yordamida tahlillash orqali hujumlarni aniqlash usullarini ishlab chiqish asosiy vazifalardan biri hisoblanmoqda. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya tizimlarida almashinuvchi va saqlanuvchi axborotni himoyalash jarayonida foydalanilayotgan sun’iy intellekt usullaridan to‘g‘ri foydalangan holda hujumlarni aniqlash tizimlarining samaradorligini oshirish va yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatkichlarini (False Alarm Rate - FAR) pasaytirishga yo‘nalishtirilgan ilmiy ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizning davlat va xo‘jalik boshqaruv tashkilotlari axborot-kommunikatsiya tizimlarida axborotni himoyalash maqsadida foydanilayotgan himoya mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida “...“UZ” domen zonasi Internet-makonining kiberxavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlarini hamda elektron hukumat, energetika, raqamli iqtisodiyot tizimlarini va muhim axborot infratuzilmasiga taalluqli boshqa yo‘nalishlarni himoya qilish” [2] bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan Ushbu vazifalarni bajarishda axborot-kommunikatsiya tizimlarida

[1] https://cybermap.kaspersky.com/

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni

sun’iy intellekt usullari yordamida hujumlarni aniqlash usullarini takomillashtirgan holda resurs sarfini kamaytirilgan, samaradorligi oshirilgan vositalarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ-764-son “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi, 2020 yildagi 5-oktabrdagi PF-6079-sonli ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmonlari, 2023-yil 31-maydagi PQ-167-sonli “O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining kiberxavfsizlik tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 14-sentabrdagi PQ-4452-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Axborot xavfsizligini ta’minlash maqsadida hujumlarni aniqlash tizimlarini qurishning anomaliyaga asoslangan neyron tarmoqlar, chuqur o‘rganish va boshqa usullar va algoritmlarni qo‘llash bo‘yicha F.Almasoudya, R.Gautam, M.Darkaie, M.Guan, A.Kribel, I.Alekseyev, J.Faysal, R.Gupta va boshqa chet ellik olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Sun’iy neyron tarmoqlar arxitekturalaring hujumlarni aniqlash tizimlaridagi ahamiyatini ko‘rsatish uchun J.Doe, L.Gonzalez,V.Kuzmin, P.Thomas, A.Dridi, J.Klein kabi ilmiy izlanuvchilar bir qancha tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Bundan tashqari, Bro Zeek, RiskWatch, Kasperskiy Lab va Trend Micro tashkilotlari tomonidan axborot-kommunikatsiya tizimlarida axborotni himoyalashning intellektual tizimlarni qo‘llagan holda dasturiy-apparat vositalarini ishlab chiqish bo‘yicha injinerlik-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekistonda S.K.Ganiyev, M.M.Karimov, K.A.Tashev, SH.R.G‘ulomov, N.B.Nasrullayev, F.B.Botirovlar boshchiligidagi ilmiy jamoalar tomonidan axborotni himoyalashning intellektual tizimlari, paketlarni filtrlash, axborot xavfsizligi risklari, hujumlarni aniqlashning usul va algoritmlari ustida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya tizimlarida hujumlarni aniqlash tizimlarini qurishning mashinali o‘qitish (machine learning) usullari asosida aniqlash samaradorligini oshirish, yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatkichini pasaytirish kabi usul va algoritmlari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 598661-EPP-12018-1-

RO-EPPKA2-CBHE-JP “Developing Services for Individuals with Disabilities–DECIDE” (2019-2022) mavzusidagi ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq hujumlarini aniqlashning samarali usul va algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

axborot-kommunikatsiya tizimlarida hujumlarni aniqlashning mavjud tizimlarini tahlillash orqali tahdidning umumiy modelini ishlab chiqish;

yolg‘ondan tasdiqlash darajasini kamaytirish va aniqlashning yuqori samaradorligini ta’minlash maqsadida tarmoq hujumlarini aniqlash tizimlarini yaratish usulini takomillashtirish;

axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq hujumlarini aniqlashda tarmoq paketlarining o‘qitish uchun xususiyatlarini tanlash algoritmlarini ishlab chiqish;

sun’iy neyron tarmoqlaridan foydalanilganda yashirin qatlam va neyronlarning tarmoq hujumlarini aniqlash tizimining ishlashiga ta’sirini o‘rganish va ularning muvozanatini ta’minlagan holda aniqlash samaradorligini oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq orqali uzatiladigan ma’lumotlar oqimiga qaratilgan hujumlar olingan.

Tadqiqotning predmetini axborot-kommunikatsiya tarmoqlarida hujumlarni aniqlashning samarali usul va algoritmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida axborotni himoyalash usullari, neyron tarmoqlar, axborot nazariyasi, diskret matematika va obyektga yo‘naltirilgan dasturlash, shuningdek, tajribaviy tadqiqotlar natijalariga asoslangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mavjud tarmoq hujumlarini aniqlash tizimlarini tahlillash uchun STRIDE metodikasi yordamida tahdid modeli ishlab chiqilgan va ehtimoliy xavflarning risk darajalari DREAD modeli asosida baholangan;

hujumlarni aniqlash tizimlarini qurish usuli, ulardagi mavjud kamchiliklarni, yolg‘ondan tasdiqlash darajasini minimallashtirish va aniqlash samaradorligini oshirish uchun tarmoq paketi xususiyatlarini ovoz berish hamda neyron tarmoqlar arxitekturasini avtomatik tanlash jarayonlarini kiritish hisobiga takomillashtirilgan;

tarmoq hujumlarini aniqlash tizimlarini sun’iy intellekt usullari yordamida o‘qitish uchun tarmoq paketi xususiyatlarini tanlashda ularning entropiyasini hisoblash va ko‘plikka asoslangan ovoz berish algoritmlari taklif etilgan;

tarmoq himoyalanganligini ta’minlash maqsadida hujumlarni aniqlash tizimining samaradorligini oshirishga imkon beruvchi neyron tarmoqlar arxitekturasini avtomatik tanlash algoritmi tarmoq paketining tanlangan xususiyatlar soniga ko‘ra hisoblash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

axborot-kommunikatsiya tizimlarida hujumlarni aniqlash usuli, samaradorlikni oshirish va yolg‘ondan tasdiqlash darajasi pasaytirish maqsadida xususiyatlarni tanlashda ovoz berish usuli orqali takomillashtirilgan;

hujumlarni aniqlashda sun’iy neyron tarmoqlar va mashinali o‘qitish usullarining takomillashtirilgan, arxitekturalarini muvozanatlash, xususiyatlarni entropiyaga asoslangan axborot ustuvorligi darajasiga ko‘ra va ko‘plikka

asoslangan ovoz berish orqali tanlash algoritmlaridan foydalanilgan holda hujumlarni aniqlash dasturiy vositasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tizim asosini tashkil etuvchi takomillashtirilgan usul va taklif etilgan algoritmlar yordamida tarmoq hujumlarini real vaqtda aniqlashda tanlangan ma’lumotlar to‘plamini o‘qitishning samaradorligi, ilmiy va tajribaviy-amaliy tadqiqotlarning natijalarin mutasaddi tashkilotlar, jumladan, “UNICON.UZ – Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi” MCHJ test serverlarida, “O‘zbektelekom” AK Samarqand filiali telekommunikatsiya tarmoqlarida hamda “Kesh-Total Service” MCHJ lokal tarmog‘ida amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati axborot-kommunikatsiya tizimlariga uyushtiriladigan hujumlarni aniqlash tizimlarining ishlash usulini takomillashtirish, ushbu tizimlarda sun’iy neyron tarmoqlar va mashinali o‘qitish usullarini qo‘llashning nazariy asoslarini rivojlantirishga ishlab chiqilgan algoritmlarning hissa qo‘shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati takomillashtirilgan nazariy asoslar va algoritmlar yordamida ishlab chiqilgan dasturiy vosita, axborot-kommunikatsiya tizimlarida hujumlarni aniqlash samaradorligini oshirish hamda yolg‘ondan tasdiqlash darajasini pasaytirish muammolarini hal etishda qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq hujumlarini aniqlash usuli va algoritmlarini amalga oshirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

mavjud tarmoq hujumlarini aniqlash tizimlarini tahlillash orqali zaifliklarni aniqlashga asoslangan STRIDE metodologiyasi yordamida ishlab chiqilgan tahdid modeli va yuqori risk darajalarini ko‘rsatgan ehtimoliy tahdidlarni bartaraf etish choralarini mujassamlashtirgan dasturiy vosita “UNICON.UZ – Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi” MCHJning “Sun’iy intellekt usullarini tadqiq etish va ularni axborot xavfsizligida qo‘llash” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida va “Kesh-Total Service” MCHJ lokal tarmog‘i amalga oshirilgan (“Kesh-Total Service” MCHJ 2025-yil 7-fevraldagi dalolatnomasi; O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish vazirligining 2025-yil 9-iyundagi 33-8/3918-sonli ma’lumotnomasi). Sinov jarayonida 3500 ta hujum namunalaridan 3426 tasi to‘g‘ri aniqlangan. Erishilgan ilmiy natijalar asosida hujumlarni aniqlash tizimining sun’iy intellekt usullari bilan integratsiyasi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish imkonini bergan;

hujumlarini aniqlash tizimlarining mavjud kamchiliklarni, yolg‘ondan tasdiqlash darajasini minimallashtirish va aniqlash samaradorligini oshirish uchun tarmoq paketi xususiyatlarini ovoz berish hamda neyron tarmoqlar arxitekturasini avtomatik tanlash jarayonlarini kiritish orqali takomillashtirilgan qurish usuli asosida ishlab chiqilgan “VIDSA” dasturiy vositasi “O‘zbektelekom” AK Samarqand filiali telekommunikatsiya tarmoqlarida DDoS, portlarni skanerlash va boshqa turdagi hujumlarni aniqlash uchun amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish vazirligining 2025-yil 9-iyundagi 33-8/3918-sonli ma’lumotnomasi). Testlash natijasida axborot-

kommunikatsiya tizimlarida hujumlarni aniqlash samaradorligi 98.5% ni, yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichi 1,5% ni tashkil qildi. Mazkur yondashuv hujumlarni aniqlash tizimlarining samaradorligini oshirish va yolg‘ondan tasdiqlash darajasini kamaytirish imkonini bergan;

tarmoq hujumlarini aniqlash tizimlarini sun’iy intellekt usullari yordamida o‘qitish uchun taklif etilgan tarmoq paketi xususiyatlarini tanlashda ularning entropiyasini hisoblash va ko‘plikka asoslangan ovoz berish algoritmlarini qo‘llagan holda ishlab chiqilgan dasturiy vosita “UNICON.UZ – Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi” MCHJning “Ishonchli uchinchi tomon xizmatini rivojlantirish va ekspluatatsiya qilish bo‘limi” hamda “Kesh-Total Service” MCHJ lokal tarmog‘iga joriy qilingan (“Kesh-Total Service” MCHJ 2025-yil 7-fevraldagi dalolatnomasi; O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish vazirligining 2025-yil 9-iyundagi 33-8/3918-sonli ma’lumotnomasi). Bunda o‘qitish uchun sarflanuvchi vaqt 15% gacha kamaytirilgan. Ilmiy tadqiqot natijasida tarmoq paketi xususiyatlarining to‘g‘ri tanlanishi vaqt sarfini kamaytirishi aniqlangan;

tarmoq himoyalanganligini ta’minlash maqsadida hujumlarni aniqlash tizimining samaradorligini oshirishga imkon beruvchi va tarmoq paketining tanlangan xususiyatlar soniga ko‘ra neyron tarmoqlar arxitekturasini avtomatik tanlashning takomillashtirilgan algoritmi “UNICON.UZ – Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi” MCHJning “Ishonchli uchinchi tomon xizmatini rivojlantirish va ekspluatatsiya qilish bo‘limi”da joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish vazirligining 2025-yil 9-iyundagi 33-8/3918-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu jarayonda, 24 soatlik kuzatuv jarayonida tashkil etilgan 3 ta hujum to‘g‘ri aniqlangan. Natijada, real vaqt rejimida hujumlarni aniqlashning yuqori samaradorligi va past yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatkichiga erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotlar natijalari 3 ta xalqaro, 11 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ishlar, ulardan 4 ta maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda, shu jumladan 1 ta xorijiy va 3 ta respublika jurnallarida nashr etilgan hamda EHM uchun yaratilgan 3 ta dasturiy vositalarga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan rasman ro‘yxatdan o‘kazilganlik guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, uning hajmi 112 bet, jumladan, kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYA ISHINING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyektlari va predmetlari aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan va texnologiyalarni

rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi aniqlashtirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarining ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy etilgan tadqiqot natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilmasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tarmoq hujumlari, tasnifi va ularni aniqlashdagi muammolar”** deb nomlangan birinchi bobida axborot-kommunikatsiya tarmoqlarida amalga oshiriluvchi hujum turlari, ularni aniqlashdagi muammolar, mavjud vositalar hamda usul va algoritmlarining qiyosiy tahlili keltirilgan. Tahlillar natijasida, hujumlarni aniqlash tizimlarida aniqlash usulini sun’iy intellekt usullari yordamida takomillashtirish, yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichini kamaytirish maqsadida paket xususiyatlarini aniq va to‘g‘ri tanlash, sun’iy neyron tarmoqlar arxitekturalarini muvozanatlash zaruriyati ko‘rsatilgan.

Dissertatiya ishining birinchi bobida to‘rtta kategoriya mansub hujumlar ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bular: Probe, DoS/DDOS, U2R va R2L kategoriyalari. Ushbu hujumlardan himoyalanishda Firewall, Honeypot, IDS kabi turli vositalar mavjud va ushbu vositalar ichida IDS lar moslashuvchanligi, qulayligi, kam resurs talab qilishi va tarafikni turli usullarda tahlil qila olishi bilan ajralib turadi.

Yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichi – yolg‘ondan tasdiqlangan holatlarning umumiy holatlar soniga nisbati bilan o‘lchanadi. Shu bilan birga u yolg‘ondan aniqlash ehtimolligi deb ham ataladi va quyidagicha aniqlanadi.

$$FAR = \frac{\mathrm{FP}}{\mathrm{FP} + \mathrm{TN}} \quad (1)$$

IDS ni takomillashtirishdagi eng muhim jihatlardan biri ma’lumotlardan muhim xususiyatlarni ajratib olish va ularni qayta ishlashga tayyorlashdir. 1 va 2-jadvallarda xususiyatlarni tanlash amalga oshirilmaganda va oshirilganda klassifikatorlarning samaradorlik natijalari keltirilgan.

1-jadval

Xususiyatlarni tanlash amalga oshirilmaganda klassifikatorlar samaradorligi

Klassifika-torlar	Vaqt (sek)	To‘g‘ri klassifikatsiyalangan (%)	Noto‘g‘ri klassifikatsiyalangan (%)	TPR samaradorligi (%)	FPR samaradorligi (%)
NaïveBayes	7.79	85.24	14.61	45.6	13.4
J-48	49.73	89.73	11.33	96.7	0.3
REPTree	21.22	90.07	9.03	89.2	2.5

Klassifikatorlar samaradorligini baholashda xususiyatlarni tanlashning bir qancha usullaridan foydalaniladi. Masalan, CFS + Best First, Info Gain + Ranker va Gain Ratio + Ranker.

2-jadval

Xususiyatlarni tanlash amalga oshirilganda klassifikatorlar samaradorligi

Xususiyat-larni tanlash algoritmi	Klassifikat-siya algoritmi	Vaqt (sek)	To‘g‘ri klassifikatsi-yalangan (%)	Noto‘g‘ri klassifikatsi-yalangan (%)	TPR samarador-ligi (%)	FPR samarador-ligi (%)
CFS + Best First	Naïve Bayes	5.22	93.5	6.95	93.7	13.4
	J-48	17.04	95.56	4.44	95.1	10.5
	REPTree	7.5	96.40	3.60	96.6	12.1
Info Gain + Ranker	Naïve Bayes	2.25	94.15	5.85	97.5	9.7
	J-48	6.47	97.77	2.34	97.0	12.0
	REPTree	4.24	96.12	3.88	96.0	4.6
Gain Ratio + Ranker	Naïve Bayes	3.46	97.99	2.00	97.4	1.1
	J-48	8.46	98.18	1.82	97.4	0.7
	REPTree	6.34	95.78	4.06	95.0	12.6

Yashirin sathlarda juda ko‘p neyronlardan foydalanish ham bir qancha muammolarga sabab bo‘ladi. Yashirin sathdagi neyronlar sonini to‘g‘ri tanlashning bir qancha usullari mavjud. Masalan, yashirin neyronlar soni kiruvchi sath o‘lchami va chiquvchi sath o‘lchami oralig‘ida bo‘lishi, yashirin neyronlar soni kiruvchi sath o‘lchamining 2/3 qismi va chiquvchi sath o‘lchamiga teng bo‘lishi yoki yashirin neyronlar soni kiruvchi sath o‘lchami ikkilanganidan kichik bo‘lishi kerak.

Birinchi usul bo‘yicha tarmoq konfiguratsiyasi l-m-n bo‘ladi (l - kirish, m - yashirin va n - chiqish neyronlari). 3 va 4-jadvallarda $l = 17$, $m = 17$, $n = 1$ va $l = 17$, $m_1 = 8$, $m_2 = 8$, $n = 1$ arxitekturalarning natijalari keltirilgan.

3-jadval

Yashirin sath=1 va yashirin neyronlar=17

Baholash mezonlari	O‘qitish	Tasdiqlash
To‘g‘ri klassifikatsiyalash darajasi (CCR, %)	100	-
Tarmoq xatoligi (%)	0.0298	0
Iteratsiyalar (ta)	501	
O‘qitish tezligi (ta/sek)	47.264	
Neyron tarmoq arxitekturasi	[17-17-1]	

Ikkinchi arxitekturada bitta kirish, ikkita yashirin va bitta chiqish sathlari mavjud bo‘lib, neyronlar soni mos ravishda 17, 8, 8 va 1 holatida kiritiladi.

4-jadval

Yashirin sath=2 va yashirin neyronlar =8 tadan

Baholash mezonlari	O‘qitish	Tasdiqlash
To‘g‘ri klassifikatsiyalash darajasi (CCR, %)	100	-
Tarmoq xatoligi (%)	0.0298	0
Iteratsiyalar (ta)	501	
O‘qitish tezligi (ta/sek)	52.187	
Neyron tarmoq arxitekturasi	[17-8-8-1]	

Yuqoridagi jadvallardan ko‘rish mumkinki 17-17-1 arxitektura va 17-8-8-1 arxitektura bir xil xatolik bersa ham o‘qitish tezligiga nisbatan ikkinchi arxitektura ustunlik qiladi.

Kiber tahdidlarning eksponensial o‘sishi bilan tashkilotlar real vaqt rejimida xavfsizlik buzilishlarini aniqlash, tahlil qilish va oldini olish uchun hujumlarni aniqlash tizimlari tizimlariga tayanmoqda.



1-rasm. Hujumlarni aniqlash tizimlari bilan tarmoq arxitekturasi

Dissertatsiyaning **“Hujumlarni aniqlash tizimlarining tahdid modeli”** deb nomlangan ikkinchi bobida hujumlarni aniqlash tizimlari uchun tahdid modeli ishlab chiqilgan hamda ularni zamonaviy tendensiyalarga mos qilib qurishda yuqori samaradorlikka erishuvchi sun’iy neyron tizimlardan foydalanish va xususiyatlarni tashlash kabi bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, hujumlarni aniqlash tizimlarida sun’iy neyron tarmoqlarining qo‘llanilish va xususiyatlar hamda ularni tanlash usullari ham yoritilgan.

Ma’lumotlar va ularni saqlaydigan tizimlar xavfsizligi uchun himoyani ta’minlashda hujumlarni aniqlash tizimi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Lekin mavjud IDS tizimlari uchun tahdid modelini qurish undagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va takomillashtirish imkonini beradi. Quyidagi 2-rasmda hujumlarni aniqlashning mavjud tizimlari uchun ishlab chiqilgan tahdid modelini ko‘rish mumkin.



2-rasm. Hujumlarni aniqlash tizimi tahdid modeli

Ushbu tahdid modeliga asosan tizim arxitekturasida bir qancha tahdidlar mavjud bo‘lib, ular quyidagicha:

1. Ma’lumotlarni yig‘ish va uzatish vositalariga nisbatan yolg‘on obyekt kiritish yoki ulardagi ma’lumotlarni qalbakilashtirish imkoniyati;
2. Yig‘ilgan ma’lumotlarni aloqa kanali orqali hujumlarni aniqlash tizimiga uzatish jarayonida ushlab qolinishi, o‘zgartirilishi yoki yo‘q qilinishi mumkinligi;
3. Axborotni qayta ishlash jarayonida o‘zgartirilgan yoki qalbakilashtirilgan ma’lumotlar xususiyatlarini aniqlash va ularni baholash;
4. Hujum signaturalarini internet tarmog‘idan yuklash;
5. Signaturalar bazasining ichki yoki tarmoqqa ulangan tashqi hujumchi tomonidan o‘zgartirib qo‘yilishi;
6. Ilova tomonidan aniqlangan va log fayllarga yozilgan hujum yoki hujumchi haqidagi ma’lumotlarni o‘zgartirilishi yoki yo‘q qilinishi;
7. Ilovani ishdan chiqarish, ma’mur huquqlarini olish, natijalarni kechiktirish yoki o‘zgartirish maqsadida ilovaga hujum uyushtirish.

Ishlab chiqilgan tahdid modeli Microsoft Threat Modelling Tools yordamida amalga oshirildi va mavjud hujumlarni aniqlash tizimlaridagi bir qancha zaiflik va kamchiliklar aniqlandi. Amalga oshirilgan tahdid modeli 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Microsoft Threat Modelling Tools yordamida amalga oshirilgan tahdid modeli

Tahlil natijalari axborot-kommunikatsiya tizimlarida mavjud tahdidlarni yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Ularni hal etish maqsadida sun’iy intellektli usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqgan holda:

1. Axborotni qayta ishlash jarayonida o‘zgartirilgan yoki qalbakilashtirilgan ma’lumotlar xususiyatlarini aniqlash va ularni baholashni oldini olish zarur. Buning uchun, ishonchli xususiyatlar to‘plamini avtomatlashtirilgan holda aniqlash va faqat tizim yoki ilovaning o‘ziga ruxsat berilishi;
2. Hujum signaturalarini internet tarmog‘idan yuklashda ishonchliligi xavfi borligi sababli hujumlarni aniqlash tizimlarini mashinali o‘qitish va sun’iy intellekt usullari orqali tarmoq trafigi anomaliyalarini aniqlash uchun sozlash va ulardan foydalanish;
3. Tarmoq trafigi anomaliyalarini aniqlashda mavjud tizimlardagi yuqori yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichini kamaytirish lozim.

Dissertatsiyaning **“Axborot-kommunikatsiya tizimlarida hujumlarni aniqlashning samarali usul va algoritmlari”** deb nomlangan uchinchi bobida axborot-kommunikatsiya tizimlarida hujumlarni aniqlash tizimlarini qurishning sun’iy neyron tarmoqlari asosida takomillashtirish haqida so‘z yuritiladi (4-5-rasmlar). Hujumlarni aniqlash tizimlarida xususiyatlar sonini belgilash (6-7-rasmlar) hamda yashirin qatlamlar va neyronlarni tanlash algoritmlari ham shu bobdan o‘rin olgan.



4-rasm. Hujumlarni aniqlash tizimlarini qurishning takomillashtirilgan usulining ishlash prinsipi

Ushbu usulning mavjudlaridan farqlari quyidagilardan iborat:

1. Usul yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichini kamaytirish talablariga mos holatda samaradorlikni oshirish uchun mos keladi.

2. Ma’lumotlar to‘plami qayta ishlanganidan so‘ng optimal xususiyatlar to‘plamini aniqlash maqsadida ajratilgan o‘qitish ma’lumotlar to‘plamidan Ovoz berish usuli yordamida aniqlab olinadi.

3. Optimal xususiyatlar sonidan kelib chiqqan holda sun’iy intellekt usullari uchun arxitektura shakllantiriladi, ya’ni yashirin qatlamlar va neyronlar soni aniqlanadi.

4. Axborot-kommunikatsiya tizimlarida hujumlarni aniqlash uchun model ansambl usulidan foydalanadi. Bu bir vaqtning o‘zida MLP, SVM, DT va RF usullaridan foydalanish imkonini beradi.

5. O‘qitilgan modelni saqlash, uzatish va qayta yuklash imkoniyatini beradi.

Taklif qilingan modelning ishlash usuli 5-rasmda keltirilgan va ishlash algoritmi yoritilgan.

Tarmoq hujumini aniqlash zararli harakatlar bilan bog‘liq murakkab namunalarni samarali qo‘lga kiritadigan xususiyatlarni sinchkovlik bilan tanlash va chiqarishga asoslanadi. Ushbu xususiyatlar normal tarmoq xatti-harakatlarini

potensial zararli anomaliyalardan ajratish uchun mashinani o‘rganish modellari, xususan, neyron tarmoqlar uchun yaratilgan asos bo‘lib xizmat qiladi.



5-rasm. Taklif qilinayotgan usul arxitekturasi

Xususiyatlarni tanlashda ovoz berish algoritmi

Har bir xususiyatni tanlash usuliga uning unumdorligiga ko‘ra w_1, w_2, w_3 vazn berilgan. Ovoz berish jarayoni uchun “majority” funksiyasidan foydalaniladi:

$$\mathrm{maj}(x, y, z) = (x \vee y) \oplus (x \vee z) \oplus (y \vee z) \quad (2)$$

Xususiyatlarni tanlashda ishlab chiqilgan ovoz berish algoritmi blok sxemasi 6-rasmda keltirilgan.

Arxitekturaning yashirin qatlamlari va neyronlari tarmoqning ma’lumotlar ichidagi murakkab munosabatlarni o‘rganish qobiliyatini belgilaydi. Neyron tarmoq arxitekturasini optimallashtirish hujumlarni aniqlash imkoniyatlarini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. To‘g‘ri sonli xususiyatlarni, yashirin qatlamlarni va yashirin neyronlarni tanlash orqali tarmoq yuqori aniqlik va samaradorlik bilan hujumlarni samarali aniqlashi va tasniflashi mumkin.



6-rasm. Ovoz berish jarayoni algoritmi blok-sxemasi

Neyron tarmog‘ining arxitekturasini optimallashtirish murakkablik va umumlashtirish o‘rtasidagi to‘g‘ri muvozanatni topishni o‘z ichiga oladi.

$$OH5 = \frac{\mathrm{SF} * (\mathrm{NI} + \mathrm{NO}) * \mathrm{Log10}(\mathrm{NI} + \mathrm{NO})}{2} \quad (3)$$

5-jadval

Yashirin neyronlar soni va qatlamlar sonini hisoblash natijalari

Hisoblash formulasi	Bitta yashirin qatlam	Ikkita yashirin qatlam	Uchta yashirin qatlam
OH1 = (NI+ NO)* (1-(1/(NI+NO)))	15	-	-
OH2 = 2/3*(NI+NO)	11	-	-
OH3 = SF*(NI+ NO)^Exp	16	32	768
OH4 = (NI+ NO)*log10(NI+NO)/2	10	-	-
OH5 = SF*(NI+ NO)*log10(NI+NO)/2	10	19	29
OH6 = SF*(NI+ NO)^ Exp*log10(NI+NO)/2	10	19	462
OH7 = SF*(NI+ NO)^Exp*log10(NI+NO)^Exp/2	10	19	558

Yuqoridagi jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, keltirilgan OH5 formula orqali neyron qatlamlarining soni ortishi bilan hisoblagan yashirin neyronlar soni orasida mutanosiblikni saqlaydi.

Dissertatsiyaning **“Hujumlarni aniqlashning takomillashtirilgan usulining dasturiy vositasi va tajriba hisoblash natijalari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida yuqoridagi boblarda taklif etilgan takomillashtirilgan usul va algoritmlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita, uning modullari hamda ishlash prinsipi keltirilgan. Shu bilan birga, amaliy masalalarni yechishda dasturiy vositani qo‘llash va tajriba hisoblash natijalari keltirilgan.



7-rasm. Dasturiy vositaning ishlash algoritmi

Mashinali o‘qitish va sun’iy neyron tarmoq usullarini o‘qitish va baholash maqsadida KDD-CUP va NSL-KDD datasetlaridan foydalanilgan.

Dissertatsiya ishida keltirilgan usul va algoritmlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita modullarga bo‘lingan holda ishlaydi. 8-rasmda real vaqt rejimida tarmoq trafigini monitorlash moduli keltirilgan.



8-rasm. Tarmoq monitoring oynasi

Quyidagi 9-rasmda datasetdagi ma’lumotlarni ishlash, xususiyatlarni tanlash, o‘qitish, baholash hamda modellarni saqlash oynasi ko‘rsatilgan.



9-rasm. O‘qitish jarayoni

10-rasmda saqlangan modelni yuklagan holda axborot-kommunikatsiya tizimiga real vaqt rejimida kiruvchi trafikni tahlil qilgan holda hujumlarni aniqlash jarayoni keltirilgan.

10-rasm. Real vaqt rejimida hujumlarni aniqlash jarayoni

6-7-jadvallarda yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichining tajribaviy natijalari keltirilgan.

6-jadval

Bitta yashirin qatlam uchun yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichi natijalari

Dataset	Hujum turi	MLP (%)	SVM (%)	DT (%)	RF (%)
KDD_CUP	DoS	1.10	1.27	1.00	1.03
	Probe	1.06	2.03	2.00	1.00
	R2L	1.30	2.07	2.01	2.02
	U2R	1.00	1.00	1.20	1.30
NSL_KDD	DoS	1.78	1.13	2.03	2.08
	Probe	1.34	2.27	2.10	2.02
	R2L	1.05	2.00	2.00	3.00
	U2R	1.00	2.30	2.30	2.50

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan natijalarning ikkinchi yashirin qatlam ishga tushirilgandan so‘ng o‘zgarish holati quyida ko‘rsatilgan.

7-jadval

Ikkinchi yashirin qatlam ishga tushirilgandan keyin yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichi natijalari

Dataset	Hujum turi	MLP (%)	SVM (%)	DT (%)	RF (%)
KDD_CUP	DoS	1.00	1.05	1.00	1.00
	Probe	1.05	1.04	2.00	2.10
	R2L	1.13	2.07	2.01	2.02
	U2R	1.00	1.80	2.40	2.50
NSL_KDD	DoS	1.20	1.25	2.20	2.09
	Probe	1.26	2.30	2.20	2.30
	R2L	1.06	2.00	2.40	2.50
	U2R	1.01	2.10	2.40	2.60

6 va 7-jadvallarda yashirin qatlamlar soni ko‘payganda, yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichi biroz pasayganini ko‘rish mumkin. Eng past yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichi 2 ta yashirin qatlam uchun olingan.

O‘qitilgan model ishlash samaradorligini ifodalovchi baholash me’zonlaridan yana bir bu F1 baho hisoblanadi. F1 baho aniqlik va to‘g‘rilik orasidagi mutanosiblikni ko‘rsatadi.

$$\mathrm{F1} = \frac{2 * \text{aniqlik} * \text{to‘g‘rilik}}{\text{aniqlik} + \text{to‘g‘rilik}} \qquad (4)$$

8-jadvalda F1 bahoni hisoblash natijalari keltirilgan.

8-jadval

Kdd-Cup va NSL-Kdd datasetlarini o‘qitish va baholash natijasida F1 baho

Datasetlar		KDD-CUP		NSL-KDD	
Hujum turi	O‘qitish usuli	Bitta yashirin qatlam uchun (%)	Ikkinchi yashirin qatlamni ishga tushurilgandan so‘ng (%)	Bitta yashirin qatlam uchun (%)	Ikkinchi yashirin qatlamni ishga tushurilgandan so‘ng (%)
DOS	MLP	99.42	99.80	98.29	99.26
	SVM	99.02	99.17	98.82	98.86
	DT	99.96	99.99	99.70	99.72
	RF	99.96	99.99	99.70	99.72
Probe	MLP	99.27	99.27	98.50	98.82
	SVM	99.37	99.22	98.80	98.58
	DT	99.91	99.89	99.93	99.87
	RF	99.91	99.89	99.93	99.87
R2L	MLP	93.27	93.45	91.85	92.25
	SVM	93.50	93.50	90.82	90.82
	DT	98.97	98.97	99.07	99.07
	RF	98.98	98.99	99.07	99.07
U2R	MLP	64.05	53.62	79.26	78.74
	SVM	65.61	51.87	81.24	81.24
	DT	94.00	93.00	93.47	93.47
	RF	94.00	93.00	93.47	93.61

Yuqoridagi jadvalda Kdd-Cup va NSL-Kdd datasetlarini turli usullar hamda turli neyron arxitekturali asosida o‘qitish va baholash natijalari keltirilgan. Ushbu jadval natijalari har ikki ma’lumotlar to‘plamida ham aniqlik va to‘g‘rilik orasidagi mutanosiblik yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA

“Axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq hujumlarini aniqlash usuli va algortmlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Hujumlarni aniqlash tizimlaridagi mavjud kamchiliklar qator omillar asosida tahlil qilinishi natijasida ularnining aniqlash samaradorligini oshirish, yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichini kamaytirishning dolzarbligi ko‘rsatildi. Bu, signaturali aniqlash usullarini sun’iy intellektli usullarga almashtirish orqali hujumlarni aniqlashning takomillashtirilgan tizimini ishlab chiqish lozimligini ko‘rsatdi.
2. Mavjud hujumlarni aniqlash usul va vositalarining qiyosiy tahlil natijalaridan kelib chiqgan holda ushbu tizimlar uchun tahdid modeli taklif qilindi. Bu o‘qitiluvchi xususiyatlar to‘plamini aniq tanlash va ularning arxitekturalarini muvozanatlashni avtomatlashtirish hamda yuqori samaradorlikni ta’minlash maqsadida mashinali o‘qitish va neyron tarmoq usullarini ansambllashgan holda qo‘llash lozimligini ko‘rsatdi.
3. Hujumlarni aniqlash tizimlarining ishlash usuli, ovoz berish hamda mashinali o‘qitish va neyron tarmoqlarning arxitekturalarini avtomatik hisoblash orqali takomillashtirildi. Ushbu usul yordamida ishlab chiqilgan hujumlarni aniqlash tizimining mavjudlaridan afzalliklari va samaradorligi jihatdan ustun ekanligi ko‘rsatildi.
4. Mashinali o‘qitish usullaridan foydalanishda tarmoq paketi xususiyatlarini tanlashning entropiyaga va ko‘plikka asoslangan ovoz berish funksiyasi orqali tanlash algoritmi ishlab chiqildi. Tajribalar natijasida tarmoq hujumlarini aniqlashda, tanlanuvchi xususiyatlar sonini belgilash orqali, yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichini 2.1% gacha kamaytirishga erishildi.
5. Mashinali o‘qitish va neyron tarmoq usullarini ansambllashgan holda o‘qitish jarayonida qo‘llash uchun ularning arxitekturalarini muvozanatlash algoritmi ishlab chiqildi. Ilmiy tadqiqot natijasida hujumlarni aniqlash tizimini o‘qitish vaqtini 15% gacha qisqartirish imkoniyati yaratildi.
6. Ishlab chiqilgan algoritmlarni modul sifatida foydalanishni ko‘zda tutgan holda, hujumlarni aniqlash tizimining dasturiy vositasi yaratildi. Ishlab chiqilgan dasturiy vosita tegishli soha korxonalarining tarmoqlarida hujumlarni aniqlash jarayonida qo‘llanilib, o‘rtacha 98% aniqlikga va 2% ga yaqin yolg‘ondan tasdiqlash ko‘rsatgichiga erishildi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.13/30.12.2019.T.07.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

БОЗОРОВ СУҲРОБЖОН МУМИН УГЛИ

МЕТОДЫ И АЛГОРИТМЫ ОБНАРУЖЕНИЯ СЕТЕВЫХ АТАК В ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ СИСТЕМАХ

05.01.05-Методы и системы защиты информации. Информационная безопасность

АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.1.PhD/T5294.

Диссертация выполнена в Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб странице (www.tuit.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Гуломов Шерзод Раджабоевич** Доктор технических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Керимов Комил Фикратович** Доктор технических наук, профессор
	Кадиров Мирхусан Мирпўлатович Доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент
Ведущая организация:	**ООО «UNICON.UZ» - Центр научно-технических и маркетинговых исследований.**

Защита диссертации состоится «_18_». _октября_ . в _11:30_ часов на заседании научного совета DSc.13/30.12.2019.T.07.02 при Ташкентском университете информационных технологий. (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (+99871) 238-64-15; e-mail: info@tuit.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий (регистрационный номер №_368_). (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (+99871) 238-64-15).

Автореферат диссертации разослан «_08_» _октября_ 2025 года.
(протокол рассылки №__ от _____ 2025г.).

Б.Ш.Махамов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

М.С.Саиткамолов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, доцент

Д.Я.Иргашева
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последние годы на глобальном уровне одной из приоритетных задач считается повышение точности и эффективности систем обнаружения атак (Intrusion Detection System – IDS) и их предотвращения (Intrusion Prevention System – IPS), а также устранение существующих уязвимостей с целью снижения или полного предотвращения финансового, технического и информационно-безопасностного ущерба, возникающего в информационно-коммуникационных системах. В ноябре 2024 года было зафиксировано более 10 500 различных атак на информационно-коммуникационные системы нашей республики. В частности, по данным лаборатории «Касперского», в декабре 2024 года Узбекистан занял 46-е место среди стран, на которые совершено наибольшее количество кибератак. Это, в свою очередь, требует совершенствования систем обнаружения атак, в частности методов и алгоритмов, обеспечивающих эффективное выявление как существующих, так и новых угроз, с целью повышения уровня безопасности информационно-коммуникационных систем. В развитых странах, таких как государства Европы, США, Китай, Российская Федерация, Япония и Республика Корея, научно-исследовательские работы по совершенствованию систем обнаружения атак с применением методов искусственного интеллекта, разработке новых методов и алгоритмов, а также их внедрению в реальные системы ведутся активно как в теоретическом, так и в практическом аспектах.

По мировому опыту, в настоящее время в результате проводимых научных исследований в области разработки средств защиты от кибератак ведутся работы по выявлению аномалий в сетевых пакетах в реальном времени, а также по совершенствованию методов и алгоритмов построения систем обнаружения атак с использованием интеллектуальных технологий. В данной сфере, в частности, одной из основных задач является отказ от методов обнаружения, основанных на сигнатурах, и разработка методов выявления атак посредством анализа пакетов с применением методов искусственного интеллекта. При этом в нашей стране также уделяется особое внимание повышению эффективности систем обнаружения атак и снижению показателей ложных срабатываний (False Alarm Rate — FAR) за счёт правильного применения методов искусственного интеллекта в процессе защиты информации, передаваемой и хранящейся в информационно-коммуникационных системах.

В информационно-коммуникационных системах государственных и хозяйственных органов управления нашей республики реализуются масштабные меры, направленные на совершенствование используемых механизмов защиты информации. В Указе Президента Республики Узбекистан № 158 от 11 сентября 2023 года «О стратегии “Узбекистан – 2030”» определены задачи: «…создание необходимых условий для беспрепятственного доступа к сети Интернет, обеспечение кибербезопасности в национальном интернет-пространстве, а также

повышение уровня грамотности граждан в вопросах использования Интернета». Кроме того, в Стратегии развития «Новый Узбекистан» на 2022–2026 годы установлены задачи по «…определению основных направлений обеспечения кибербезопасности интернет-пространства в доменной зоне “UZ”, а также комплексных мер по защите систем электронного правительства, энергетики, цифровой экономики и других сфер, относящихся к критически важной информационной инфраструктуре…». В выполнении этих задач особое значение имеет разработка усовершенствованных средств обнаружения атак в информационно-коммуникационных системах с применением методов искусственного интеллекта, позволяющих снизить затраты ресурсов и повысить эффективность защиты.

Данное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-764 от 15 апреля 2022 года «О кибербезопасности»; Указом Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития “Новый Узбекистан” на 2022–2026 годы»; Указом Президента № УП-6079 от 5 октября 2020 года «Об утверждении Стратегии “Цифровой Узбекистан — 2030” и мерах по её эффективной реализации»; Постановлением Президента № ПП-167 от 31 мая 2023 года «О дополнительных мерах по совершенствованию системы кибербезопасности объектов критической информационной инфраструктуры Республики Узбекистан» и Постановлением Президента № ПП-4452 от 14 сентября 2019 года «О дополнительных мерах по контролю внедрения, а также совершенствованию системы защиты информационных технологий и коммуникаций».

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики IV. «Информатизация и развитие инфокоммуникационных технологий».

